

## Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2018 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



**Ish haqi.** 2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

• ta'limda 1145 ta muassasada 56515 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,7 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 394287527,0 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 42,0%ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1162781,3 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 33,3 %ga o'sdi;

• sanoatda 32 ta korxonada 11952 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,1 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 140074723,7 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,9 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1953295,5 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 78,6 %ga o'sdi;

• sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 62 ta muassasada 21473 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,1 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 146243348,9 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,6 %ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1135094,8 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 35,3 %ga o'sdi;

• tashish va saqlashda 7 ta korxonada 2501 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,1 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 32356285,6 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 3,4 %ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2156223,2 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 60,6 %ga o'sdi;

• moliyaviy va sug'urta faoliyatida 31 ta muassasada 3021 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 48267112,8 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 5,1 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2662866,2 so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 33,0 %ga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1323104,0 so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **41,6 %** ga o'sishni ta'minladi.

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi**  
**(2018 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik**  
**sub'ektlaridan tashqari)**


	<b>Korxona va tashkilotlar soni, birlik</b>	<b>Xodimlar soni, kishi</b>	<b>Ish haqi fondi, ming. so'm</b>	<b>O'rtacha oylik ish haqi, so'm</b>
<b>Xorazm viloyati - jami</b>	<b>2891</b>	<b>118392</b>	<b>939609825,6</b>	<b>1323104,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	32	11952	140074723,7	1953295,5
Qurilish	12	1429	11389223,4	1328344,2
Savdo	26	2113	20011560,9	1578447,8
Tashish va saqlash	7	2501	32356285,6	2156223,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	45	254546,5	942764,7
Axborot va aloqa	18	828	8093154,4	1629056,8
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	31	3021	48267112,8	2662866,2
Ta'lim	1145	56515	394287527,0	1162781,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	62	21473	146243348,9	1135094,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	141	1607	9781476,2	1014465,5
Boshqa faoliyat turlari	1403	16908	128850866,2	1259818,6

2018 yil yanvar-iyun oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati savdoda 86,6 %, sanoatda 78,6 %, axborot va aloqada 68,5 %, tashish va saqlashda 60,6 % kuzatildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyatdagagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan moliyaviy va sug'urta faoliyatida 101,3 %ga, axborot va aloqada 23,2 % ga, sanoatda 47,7 %ga, tashish va saqlashda 63,0 % ga yuqorini tashkil etgan bo'lsa, aksincha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmarlarda 28,7 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 14,2 %ga, ta'llimda 12,1 %ga, San'at, ko'ngil ochish va dam olishda 23,3 % ga viloyatdan kamni tashkil etmoqda.




### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2018 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lسا, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida **1617785,1** so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **(122,3 %)**) tashkil etgan bo'lسا, Xazarasp tumanida **1409276,9** so'mni (**106,5 %**), Gurlan tumanida **1095791,2** so'mni (**82,8 %**), Shovot tumanida **1056223,1** so'mni (**79,9 %**) va Yangibozor tumanida **1064673,9** so'mni (**80,5 %**) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### **Tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018 yil yanvar-iyun, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)**



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-iyun oylarida **426466,2** so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

**Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
 (yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
 sub'ektlaridan tashqari, so'm)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>934602,6</b>	<b>1323104,0</b>	<b>141,6</b>
Urganch shahar	1098932,7	1617785,1	147,2
Xiva shahar	-	1165725,5	-
<i>tumanlar:</i>			
Bogot	846058,0	1143046,5	135,1
Gurlan	798683,1	1095791,2	137,2
Qo'shko'pir	858838,5	1160344,0	135,1
Urganch	862909,8	1249571,9	144,8
Xazorasp	951321,7	1409276,9	148,1
Xonqa	895554,8	1222182,0	136,5
Xiva	858030,7	1144221,1	133,4
Shovot	806758,7	1056223,1	130,9
Yangiariq	844448,2	1186162,0	140,5
Yangibozor	790365,6	1064673,9	134,7



**Xorazm viloyati**  
*Demografiya va mehnat statistikasi bolimi*